

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI
HUZURIDAGI BIZNES VA TADBIRKORLIK OLIY MAKTABI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.19/04.07.2023.1.88.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI
HUZURIDAGI BIZNES VA TADBIRKORLIK OLIY MAKTABI**

ZUHUROV KAMOLJON ZUHUR O‘G‘LI

**RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA TIJORAT BANKLARI
XIZMATLARINING TRANSFORMATSIYALASHUVI**

08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по экономическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the Doctor of Philosophy (PhD)
in economic sciences**

Zuhurov Kamoljon Zuhur o'g'li

Raqamli iqtisodiyot sharoitida tijorat banklari xizmatlarining transformatsiyalashuvi..... 3

Зухуров Камалджан Зухур угли

Трансформация услуг коммерческих банков в условиях цифровой экономики 29

Zukhurov Kamoljon Zukhur ugli

Transformation of services of commercial banks in the conditions of the digital economy..... 57

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ
List of published works 61

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI
HUZURIDAGI BIZNES VA TADBIRKORLIK OLIY MAKTABI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.19/04.07.2023.1.88.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI
HUZURIDAGI BIZNES VA TADBIRKORLIK OLIY MAKTABI**

ZUHUROV KAMOLJON ZUHUR O‘G‘LI

**RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA TIJORAT BANKLARI
XIZMATLARINING TRANSFORMATSIYALASHUVI**

08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.2.PhD/Iqt2358 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Biznes va tadbirkorlik oliy maktabida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezюме)) Ilmiy kengash web-sahifasi (www.rgsbm.uz) va "ZiyoNet" Axborot-ta'lim portalida (www.ziyounet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: Suyunov Dilmurod Xolmuradovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar: Gulyamov Saidaxror Saidaxmedovich
akademik, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qo'chqorov Tohir Safarovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot: O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Biznes va tadbirkorlik Oliy maktabi huzuridagi Ilmiy darajalar beruvchi DSc.19/04.07.2023.1.88.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil "20" may kuni soat 16:30 16:30 dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100060, Toshkent shahri, Mirobod ko'chasi, 25-uy. Tel.: (99871) 239-03-05; faks: (99871) 239-03-03; e-mail: info@rgsbm.uz.

Dissertatsiya bilan Biznes va tadbirkorlik oliy maktabining Axborot-resurs marakazida tanishish mumkin (5 raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100060, Toshkent shahri, Mirobod ko'chasi, 25-uy. Tel.: (99871) 239-03-05; faks: (99871) 239-03-03; e-mail: info@rgsbm.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil "15" may kuni tarqatildi.
(2025-yil "15" may dagi 03 raqamli reyestr bayonnomasi).



Z.U. Berdinazarov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash

akademik, dotsent

T.U. Qodirov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash

ilmiy kotibi, i.f.n., dotsent

A.T. Kenjabayev

A.T. Kenjabayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, i.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Hozirgi kundagi dunyoda shiddat bilan rivojlanayotgan raqamli texnologiyalar butun dunyo davlatlarining ijtimoiy-iqtisodiy faoliyati, iqtisodiy siyosati, xavfsizlik masalalari hamda jahon banklarida xizmatlar tarkibi va innovatsion texnologik yangilanishini tubdan o'zgarishiga olib kelmoqda. Hozirgi kunda bank sohasi dunyo bo'ylab raqamli qurollanish poygasiga kirishgan. 2023–2025-yillarda dunyo banklari raqamli banking imkoniyatlari uchun 9,7 mlrd. AQSh dollari miqdorida investitsiya kiritishni rejalashtirgan. Raqamli bank xizmatlaridan foydalanuvchilar soni 2025-yil oxirigacha 3,6 milliardga yetishi kutilmoqda. Shu bilan birga, global raqamli bank platformasi bozori 2026-yilga kelib 13,9 milliard dollargacha o'sishi prognoz qilinmoqda. Statistik ma'lumotlariga ko'ra, raqamli bank sektori kelgusi besh yil ichida doimiy ravishda o'sib boradi. 2025-yilda butun dunyo bo'ylab raqamli banklar 1,61 trillion dollar sof foiz daromad olishi kutilmoqda. Bu raqam 2025-yildan 2029-yilga qadar 6,80 % yillik o'sish sur'atida o'sishi kutilmoqda va 2029-yilga kelib 2,09 trillion dollarga yetadi. Xitoy 2025-yilda 528,8 milliard dollar sof foiz daromadini keltirib, mutlaq ko'rsatkichlarda yetakchilik qilishi kutilmoqda¹.

Tadqiqotlarga ko'ra, jahon iqtisodchi olimlari jadal rivojlanib borayotgan raqamli iqtisodiyot sharoitida bank tizimida xizmatlarning raqamlashuv darajasi va samaradorligini baholash bo'yicha yagona integral indikatorni yaratish bo'yicha muammolarga duch kelishmoqda. Ushbu holatlarni bartaraf etishda empirik va statistik ma'lumotlarning yetishmasligi, texnologik rivojlanish jarayonlarining shiddat bilan o'zgarib borayotganligi, hududlar o'rtasida raqamli transformatsiyaga o'tish bilan bog'liq nomutanosibliklar, institutsional o'zgarishlarning tez sur'atlarda amalga oshayotganligi sabab bo'lmoqda. Bank tizimida raqamli transformatsiyaning kelajak istiqbolida bank xizmatlarini raqamlashtirishni takomillashtirish uchun yangi turdagi moliyaviy texnologiyalarni yaratish va ularni bank faoliyatiga tatbiq etishning uslubiy jihatlari hamda ushbu texnologiyalarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga ta'sirini tadqiq qilish bilan bog'liq ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

Mamlakatimizda tijorat banklarini rivojlangan mamlakatlar banklari darajasida chiqarish maqsadi qo'yilib, bank xizmatlarini raqamli transformatsiyasini jadallashtirish bo'yicha izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2020–2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi farmonida "moliya bozorida teng raqobat sharoitlarini yaratish, kreditlashni faqat bozor shartlari asosida amalga oshirish, banklarning davlat resurslariga qaramligini pasaytirish, bank xizmati ko'rsatishni modernizatsiya qilish, banklarning samarali infratuzilmasini yaratish va faoliyatini avtomatlashtirish, davlat ulushi mavjud tijorat banklarini kompleks transformatsiya qilish, bank ishining zamonaviy standartlarini, axborot texnologiyalari va dasturiy

¹ <https://sdk.finance/what-is-digital-banking/>

mahsulotlarni joriy etish, bank aktivlarining YaIMga nisbatini 2025-yilgacha 25-27 foizga yetkazish, xususiy bank aktivlarining bank sektori aktivlari umumiy hajmidagi ulushini 60 foizga yetkazish, depozitlarning banklar majburiyatlariga nisbatan 50-60 foizga yetkazish² kabi qo'yilgan vazifalar banklarning raqobatbardoshligini oshirish omili sifatida ko'rilmogda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi PF-5992-son "2020–2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi, 2020-yil 5-oktyabrdagi PF-6079-son "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risi"dagi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmonlari va sohaga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Xorijiy adabiyotlarda raqamli iqtisodiyotni shakllantirish sharoitida raqamli bank hamda bank xizmatlarini raqamlashtirishni rivojlantirish masalalariga D.Tapscott, N.Lane, T.Mesenbourg, M.Kastells, B.Panshin, N.Negroponte, A.Sokolov, J.Shumpeter., I.L.Avdeeva, L.V.Lapidus, V.Sumarokov, Ye.Shoxin, Ye.Brovkin, N.Amosova, O.Lavrushin, Ye.Meshkova, D.Vaxrushev, G.Beloglazova³ kabi olimlar va amaliyotchilarning ishlari bag'ishlangan.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida tijorat banklari transformatsiyalashuvining ayrim tashkiliy-iqtisodiy masalalari mamlakatimiz iqtisodchi-olimlari S.S.Gulyamov, A.T.Kenjabayev, D.X.Suyunov Q.X.Abduraxmonov,

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi "2020 — 2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi PF-5992-son Farmoni// Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 13.05.2020-y., 06/20/5992/0581-son.

³ Tapscott Don. The Digital Economy: Promise and Peril in the Age of Networked Intelligence, 1996; Lane Neal. Advancing the Digital Economy into the 21st Century (Assistant to the US President for Science and Technology), 1999; Mesenbourg Thomas. Measuring the Digital Economy (US Bureau of the Census), 2001; Кастеллс М. Галактика Интернет: Размышления об Интернете, бизнесе и обществе. Екатеринбург: У – Фактория, 2004.; Паньшин, Б. Цифровая экономика: особенности и тенденции развития / Б. Паньшин // Наука и инновации. – 2016. – Т. 3. – № 157. – С. 17-20.; Negroponte N. Being Digital / N. Negroponte. – NY: Knopf, 1995. – 256 p.; Соколов И.А. Цифровая экономика Западной Австралии – умные горнорудные и нефтегазовые предприятия, железные дороги, морские порты и формализованные онтологии. Шумпетер Й. Теория экономического развития. – М.: «Прогресс», 2017. 211 б.; Авдеева, И. Л. (2017). Новые формы развития информационных систем поддержки бизнеса в условиях глобализации. Национальные интересы: приоритеты и безопасность, 13(4 (349)); Лapidus Л.В. Цифровая экономика: управление электронным бизнесом и электронной коммерцией. Монография. – М.: «ИНФРА-М», 2019. URL: <http://znanium.com/catalog/product/1996752>; Сумароков В.Н., Шохин Е.И., Бровкина Н.Е., Лаврушин О.И., Амосова Н.А., Вахрушев Д.С., ... & Мешкова, Е.И. (2018). Нейтрализация негативного влияния факторов уязвимости национального банковского сектора. Белоглазова Г. Н. (2012). Банковское дело.

A.K.Mirsoatov, Sh.Z.Abdullayeva, M.B.Xamidulin, A.A.Omonov⁴va boshqalarining ishlarida tadqiq etilgan.

Mazkur mavzu doirasida olib borilgan ilmiy-nazariy tadqiqotlar ko‘pligiga qaramay, raqamli iqtisodiyotni shakllantirish sharoitida bank faoliyatini innovatsion rivojlantirish hamda raqamli iqtisodiyot sharoitida bank xizmatlarining transformatsiyalashuvi masalalari to‘liq o‘rganib chiqilmagan. Bu holat dissertatsiya ishida o‘rganilayotgan ilmiy-amaliy muammolarni hal etish bilan bog‘liq mualliflik yondashuvlari, xulosa, taklif va tavsiyalar bilan belgilanadi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi kompleks ilmiy-tadqiqot rejasi doirasida amalga oshirildi.

Tadqiqotning maqsadi raqamli iqtisodiyot sharoitida tijorat banklari xizmatlarining transformatsiyalashuvi bilan bog‘liq ilmiy taklif va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

tijorat banklarining raqamli transformatsiyasi jarayonida raqamli bank xizmatlarining bank faoliyati natijadorligiga ta‘sirini baholash va raqamli xizmatlarni takomillashtirishning asosiy yo‘nalishlarini aniqlash;

bank xizmatlari raqamli transformatsiyasiga ta‘sir etuvchi omillarni tizimlashtirish hamda ularning bank faoliyati samaradorligiga ta‘sirini baholash;

raqamli texnologiyalaridan foydalangan holda bank xizmatlarini ko‘rsatish jarayonida yuzaga keladigan tashkiliy-iqtisodiy va moliyaviy munosabatlarni tavsiflash;

bank faoliyati va xizmatlarini transformatsiyalash orqali bank xizmatlari samaradorligini oshirish yuzasidan takliflar ishlab chiqish;

moliyaviy xizmatlar bozori talabi va mijozlar ehtiyojlarini to‘liq qondirishga yo‘naltirilgan yangi turdagi raqamli bank xizmatlarini taqdim etish imkoniyatlarini o‘rganish;

bank faoliyatida raqamli transformatsiyani joriy etish va bank xizmatlaridan masofaviy foydalanishni kengaytirishga oid bank boshqaruvi faoliyatini takomillashtirishga oid taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida tijorat banklarida raqamli texnologiyalarni qo‘llash orqali innovatsion bank xizmatlarini joriy etish mexanizmi olingan. Xususan, “Turonbank” ATB muassasasi faoliyati misolida olingan.

⁴ С.С.Гулямов. «Проблемы и пути трансформации национальных экономик: новые вызовы инвестиционно инновационного прорыва» Ташкент-2019, А.Т.Кенжабаев, Д.Х.Суюнов “State regulation of the digital transformation of the economy”, American Journal of Business Management, Economics and Banking, 2023, Абдурахманов К.Х., Абдуллаева Ш.Р. и др. Повышение роли финансового сектора в формировании цифровой экономики. Монография. - Т.: Ташкентский филиал РЭУ им. Плеханова; А.К.Мирсоатов Инновационное развитие банковских услуг в условиях формирования цифровой экономики, диссертации доктора философии, (doctor of philosophy) по экономическим наукам. Ташкент, 2021. Хамидулин М.Б., Абдуллаева Ш.Р. Повышение эффективности финансовых инструментов в обеспечении устойчивого роста национальной экономики. Монография / академик Абдурахманов К.Х. под общей редакцией. - Т.: Ташкентский филиал РЭУ им. Плеханова, 2016; Омонов А.А. Вопросы эффективного управления ресурсами коммерческих банков архивы-темы проекта для получения д.э. наук. - Ташкент, 2008.

Tadqiqotning predmeti bo‘lib tijorat banklarini transformatsiyalash jarayonida raqamli bank mahsulotlarini ishlab chiqish bilan bog‘liq tashkiliy, iqtisodiy va moliyaviy munosabatlar hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya ishida olingan natijalarni tavsiflashda guruhlash, taqqoslash, ilmiy fikrlash, omilli tahlil, deduksiya, induksiya, ekonometrik modellashtirish va statistik tadqiqot usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

“Turonbank” ATB alohida raqamli xizmatlarining bank sof foydasiga ta’siri baholanib, mijozlar talabini chuqurroq o‘rganishga xizmat qiluvchi raqamli bank xizmatlaridan foydalanish murakkabligi koeffitsiyenti taklif etilgan;

tijorat banklarining raqamli transformatsiyaga o‘tish jarayonida komission daromadlar va komission xarajatlarni bevosita sof foydaga ta’sirini o‘rganish asosida tijorat banki raqamli transformatsiyasining takomillashgan modeli ishlab chiqilgan;

biznes jarayonlari, bank va bankdan tashqari xizmatlarni raqamlashtirish hisobiga bank bozor qiymatini maksimal oshirish imkonini ta’minlovchi bank xizmatlarini raqamlashtirishning umumiy arxitekturasi takomillashtirilgan;

mijozlar ehtiyojlariga yo‘naltirilgan raqamli bank xizmatlarini joriy etish strategiyani shakllantirish va amalga oshirishga uslubiy yondashuv ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

iqtisodiy-matematik modelni qo‘llash orqali bank raqamli transformatsiyasi sharoitida raqamli xizmatlarning transformatsiya muhitiga ta’sir etuvchi asosiy ko‘rsatkichlarining ta’sir doirasi aniqlangan;

tijorat banklari tomonidan bank xizmatlarining raqamli transformatsiyasi sharoitida xizmatlarning ustuvor yo‘nalishlarini raqamlashtirish orqali tijorat banklari salohiyatini oshirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan;

tijorat banklarida bank xizmatlarining raqamli transformatsiyasini samarali rivojlantirish va yangi turdagi raqamli bank xizmatlarini joriy etishni takomillashtirish bo‘yicha bank boshqaruviga takliflar ishlab chiqilgan;

an’anaviy va raqamli bank xizmatlari modellari o‘rtasidagi farqlar asosli ko‘rsatib berilgan hamda yangi bank xizmatlariga ta’sir etuvchi omillar tizimli tasniflangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi qo‘llanilgan yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi, statistik ma’lumotlarning rasmiy manbalardan olinganligi, matematik-statistik tahlil ma’lumotlarning ishonchlilik talablariga javob bera olganligi, berilgan ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar amalda sinovdan o‘tkazilganligi, amaliyotga joriy etilganligi va ularning natijalari vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati ixtisoslashtirilgan ilmiy-metodik tadqiqotlarda olingan natijalardan foydalanish, shuningdek, raqamli iqtisodiyotni shakllantirish sharoitida tijorat banklarining innovatsion rivojlanishining nazariy bazasini shakllantirishga xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati tijorat banklari faoliyatini yanada takomillashtirish, bank xizmatlari ko'rsatish jarayonida inson omili aralashuvini qisqartirish hamda banklar tomonidan yaratilgan qulayliklar asosida aholiga qulaylik yaratish hamda tadbirkorlar faoliyati samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Raqamli iqtisodiyot sharoitida tijorat banklari xizmatlarining transformatsiyalashuvi bo'yicha ishlab chiqilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar asosida:

“Turonbank” ATB alohida raqamli xizmatlarining bank sof foydasiga ta'siri baholanib, mijozlar talabini chuqurroq o'rganishga xizmat qiluvchi raqamli bank xizmatlaridan foydalanish murakkabligi koeffitsiyenti taklifi “Turonbank” ATB amaliyotida qo'llanilgan (“Turonbank” ATBning 2024 yil 19 dekabrda 31/02-07 son malumotnomasi). Mazkur taklif qo'llanilishi natijasida bank daromadlari 2023-yilda reja ko'rsatkichini 9 mlrd ortiqcha daromad, ya'ni 23 foizga o'sishi bilan yakunlandi;

tijorat banklarining raqamli transformatsiyaga o'tish jarayonida komission daromadlar va komission xarajatlarni bevosita sof foydaga ta'sirini o'rganish asosida tijorat banki raqamli transformatsiyasining takomillashgan modeli ishlab chiqilgan. Ushbu model “Turonbank” ATB faoliyatida komission daromadni oshirish, mijozning barcha turdagi ma'lumotlarini davlat xizmatlari bilan integratsiyasi, to'lov jarayonini tezlashtirish uchun “one touch” texnologiyasini amaliyotga joriy etish, Tadbirkorlik subyektlari va byudjet korxonalarining “Uzasbo”, “1C”, dasturlari va bankning ABS tizimini integratsiyasini amaliyotga joriy qilish uchun qabul qilingan (“Turonbank” ATBning 2024 yil 19 dekabrda 31/02-07 son malumotnomasi). Mazkur ilmiy yangilikni amaliyotga joriy etilishi natijasida “Turonbank” ATB xizmatlarini raqamlashtirishni takomillashtirishni tatbiq etish orqali bank uchun yangi 500 mingdan ziyod jismoniy 1,5 mingdan ortiq yuridik mijozlarni ko'payishiga erishildi. Yangi mijozlar orqali olingan daromad esa 14 mlrd so'mlik iqtisodiy samara berdi;

biznes jarayonlari, bank va bankdan tashqari xizmatlarni raqamlashtirish hisobiga bank bozor qiymatini maksimal oshirish imkonini ta'minlovchi bank xizmatlarini raqamlashtirishning umumiy arxitekturasi takomillashtirilgan. Ushbu taklif natijasida bankning ichki hujjat aylanish jarayonlari xususan boshqaruv qarorlari hamda bank kengashi bayonlarini qog'oz ko'rinishidagi imzodan raqamli formatga o'tkazish, bank arxiv hujjatlarini saqlash va nazorat qilishni raqamlashtirish, “Turonbank” ATB faoliyatiga joriy etilgan (“Turonbank” ATBning 2024 yil 19 dekabrda 31/02-07 son malumotnomasi). Mazkur taklif qo'llanilishi natijasida bank qo'shimcha ichki jarayonlarida hujjatlar aylanishini qog'oz ko'rinishidan elektron ko'rinishga o'tishi orqali qo'shimcha 198 mln so'mlik qog'oz tejab qolingani, bank arxiv hujjatlarini elektron ko'rinishga keltirish orqali esa qo'shimcha 348 mln so'mlik iqtisodiy samaraga erishilgan;

mijozlar ehtiyojlariga yo'naltirilgan raqamli bank xizmatlarini joriy etish strategiyasini shakllantirish va amalga oshirishga uslubiy yondashuv ishlab chiqilgan. Berilgan taklif asosida mijozlar bazasini oshirishda raqamli xizmatlar orqali olinadigan komission haqlarni minimallashtirish, mobil ilovalarda

qo‘shimcha turdagi xizmatlarni joriy etish bo‘yicha berilgan taklif, “Turonbank” ATB faoliyatiga joriy etilgan (“Turonbank” ATBning 2024 yil 19 dekabrda 31/02-07 son ma‘lumotnomasi). Mazkur taklif qo‘llanilishi natijasida mijozlardan olinadigan komission haqlar 35 foizga arzonlashdi va bu aholining jamg‘armasini 8 mlrd so‘mga oshishiga olib kelgan bo‘lsa, bank mijozlarini 400 mingga oshishiga olib keldi bu esa bank uchun daromadlarning oshishiga olib keldi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 6 ta, jumladan, 3 ta respublika va 3 ta xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinishi. Mazkur tadqiqot mavzusi bo‘yicha jami 19 ta ilmiy ishlar, shundan 5 tasi O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda (3 ta mahalliy va 2 ta xorijiy nashrlarda), 7 ta xalqaro jurnallarda, 6 ta xalqaro hamda respublika konferensiyalari ilmiy to‘plamlarida chop etilgan. Elektron hisoblash mashinalari uchun yaratilgan dasturning rasmiy ro‘yxatdan o‘tkazilganligi to‘g‘risida 1 ta guvohnoma olingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 165 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi, dissertatsiyaning mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi, muammoning o‘rganilganlik darajasi, uni dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti, usullari, tadqiqotning ilmiy yangiligi, nazariy va amaliy ahamiyati, ularning joriy qilinishi, tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi, natijalarining e‘lon qilinganligi, dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Tijorat banklari xizmatlarida raqamli texnologiyalardan foydalanishning samaradorligini oshirishning nazariy uslubiy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida raqamli iqtisodiyotga bag‘ishlangan nazariy konsepsiyalar, xususan, hududiy raqamli iqtisodiyotning nazariy jihatlari tadqiq etilgan. Raqamli iqtisodiyot borasida turli yondashuvlar o‘rganilgan, rivojlanish evolyutsiyasi tasniflangan va umumlashtirilib, mualliflik ta‘riflari ishlab chiqilgan. Shuningdek, hududlarda iqtisodiyotni raqamlashtirish mexanizmlari tizimlashtirilgan hamda ushbu masala borasida Hindiston, Yaponiya, Janubiy Koreya, AQSh, Rossiya, Xitoy kabi mamlakatlarning xorijiy tajribasi tahlil etilib, bunda bank xizmatlarining raqamli transformatsiyasi jarayonida “Neobank” tushunchasi alohida o‘rin egallashi qayd etilgan.

Mazkur bob doirasida “raqamli iqtisodiyot” tushunchasi o‘rganilib, bu xususida adabiyotlarda uchraydigan ilmiy yondashuvlar (D.Tapskott,

N.Negroponte, L.Veniaminov, A.A.Sirotskiy, M.Flaming, I.Novikova, S.K.R.Adamova, M.V.Lednev, I.Ye.Pokamestov, S.S.Gulyamov) atroflicha tahlil etilgan. Tadqiqotchi ilgari surilgan nazariyalarga asoslanib, raqamli iqtisodiyot sharoitida bank ishining raqamli transformatsiyasining mohiyati va iqtisodiy mazmunini chuqur anglash uchun sanoat inqiloblarining rivojlanish nazariyasi va texnologik qonuniyatlar tushunchalari bilan bog‘liq texnologik o‘zgarishlarning kelib chiqishini o‘rganish zarur ekanligi ko‘rsatib o‘tildi.

Dissertant tomonidan “raqamli bank” tushunchasiga quyidagicha mualliflik ta’rifi ishlab chiqilgan: “raqamli bank – bu bank bilan mijoz o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarni raqamli axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida o‘rnatishga asoslangan munosabatlar tizimidir”.

Shuningdek, raqamli banklar to‘g‘risida VoIDU professori Perekrestova Lyubov Veniaminovna yagona milliy to‘lov va hisob-kitobni shakllantirish uchun barcha shakl va turlarni parallel ravishda rivojlantirishni tavsiya etadi. To‘lov tizimlarini bosqichma-bosqich integratsiyalashgan holda milliy to‘lov tizimiga erishish mumkinligi ta’kidlaydi. Banklar umumiy to‘lov maydoni bo‘lishini, riskni minimallashtirish va yanada ilg‘or texnologiyalar yordamida banklar xizmatlarida transformatsiyalashuv zarurligini ta’kidlaydi.

Jahon bankining xalqaro eksperti senior Ivo Jenik raqamli banklar xususida quyidagi fikrlarni bildiradi: “Raqamli banklar yangi texnologiyalar asosida xizmat qiluvchi va yanada samarali bank xizmatlarini taklif qila oladigan banklardir. Ular yangi xizmatlar joriy qilish uchun moslashuvchanlikka ega segmentlar va bozor dinamikasini yaratishda bozor samaradorligini oshirishga erisha oladilar”.


Jahon bankining yana bir xalqaro eksperti senior Mark Flaming esa zamonaviy hamda an’anaviy bank xususida shunday deydi: “Zamonaviy bank texnologiyasining kuchi uning “modulli” tuzilishidadir. Oddiy so‘zlar bilan aytganda, biz bank stekini foydalanuvchi interfeyslari uchun oldingi kanallar, mahsulot va xizmatlarni sozlaydigan biznes qoidalari va hisoblarni kuzatib boruvchi daftar kabi tasavvur qilishimiz mumkin. Shuningdek, stek tashqi dunyo bilan, jumladan, to‘lov tizimlari, kartalarni boshqarish tizimlari, SWIFT va kliring va hisob-kitob tarmoqlari bilan integratsiyalashishi kerak”.

An’anaviy va raqamli bankni rivojlantirish hamda yangi turdagi moliyaviy texnologiyalarni joriy etishda bir nechta xorijiy davlatlar o‘rganilgan. Xitoy sanoat va tijorat banki 2021-yil birinchi yarim choraklik hisobotida tarmoqda birinchi bo‘lib yuzma-yuz bo‘lmagan xizmatlarni taqdim etish uchun bulut texnologiyasini joriy qilganini e’lon qildi. U mobil banking, oflayn filiallar va masofaviy xizmatlar kabi funksiyalarni biriga ulash bilan tavsiflanadi. Raqamli transformatsiyaga talab mavjud bo‘lsada, oflayn filiallar hali ham muhim element sifatida tan olinadi. So‘nggi paytlarda investitsiyalar, moliyaviy texnologiyalar va hisob o‘tkazmalari kabi moliyaviy xizmatlar asosan onlayn tarzda amalga oshirilmoqda.

Hindistonning ikkinchi yirik xususiy banki bo‘lgan “ICICI” Bank (The Industrial Credit and Investment Corporation of India) o‘zining turli funksiyalari bo‘yicha 200 dan ortiq biznes jarayonlarida dasturiy ta’minot robotlarini joylashtirdi. “ICICI” Bankning dasturiy ta’minot botlari tizimlardan ma’lumotlarni olish va sharhlash, naqshlarni aniqlash va biznes jarayonlarini bir nechta ilovalarda

boshqarish uchun tuzilgan, jumladan, ma'lumotlarni kiritish va tekshirish, avtomatik formatlash, ko'p formatli xabarlar yaratish, matnni qazib olish, ish jarayonini tezlashtirish, yarashtirish va valyuta almashinuvi tezligini qayta ishlash kabi xususiyatlar mavjud.

Raqamli bank xizmatlarini rivojlantirish hamda yangi turdagi masofaviy bank xizmatlarini ishlab chiqish hamda joriy etish bugungi banklarning asosiy vazifalaridan biri ekanligi, banklar moliyaviy texnologiya yaratuvchilari bilan doimiy aloqalar o'rnatib borishlari kerakligi hamda shu yo'nalishda olib borilayotgan ilmiy ishlanmalar va tadqiqotlarga mablag' ajratishlari muhimligi bir qator olimlarning fikr va mulohazalari hamda dissertant tomonidan tahlil qilingan va mualliflik xulosalari berilgan holda asoslangan.



1-rasm. Raqamli transformatsiyani bank boshqaruviga ta'siri⁵

Ta'kidlash kerakki, bank xizmatlarining raqamlashuvi bank boshqaruviga ham muhim ta'sirini ko'rsatadi. Dissertatsiyada ushbu ta'sir atroflicha tahlil qilingan (1-rasm).

Mamlakatimizdagi banklarning raqamlashuv holatini rivojlantirish borasida bugungi kunda dunyoning rivojlangan mamlakatlari tajribasi o'rganilganligi barobarida bank xizmatlarini raqamlashtirishda davlat tomonidan hududiy siyosat yuritilishi kerakligi asoslangan.

Mahalliy banklar foiz daromadlariga asoslangan foyda strukturasi ega bo'lganligi sababli, foyda faqat kreditlar ko'payganda yoki sof foiz marjasi oshganida oshadi, shu bilan birga, banklar o'rtasida kreditlarni jalb qilish bo'yicha raqobatning kuchayishi, faqat internet-banklarning ishga tushirilishi hamda fintech kompaniyalari kabi yangi raqobatchilarning paydo bo'lishi tufayli bank rentabelligining ehtimoli yomonlashdi. Mahalliy banklar komission daromadlarni kengaytirish va raqamli moliyani kuchaytirishi hamda o'z xizmatlarini platformalar orqali uzatishlarni kuchaytirishlari kerakligi va bu orqali rentabellikni oshirishga harakat qilishlari zarurligi asoslangan.

⁵ Tadqiqot jarayonida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Raqamli transformatsiya banklar uchun majburiydir. Xarajatlarni kamaytirish va samaradorlikni oshirish bosimi bilan birga mijozlar talablarini o'zgartirish banklarni zamonaviy texnologiyalardan foydalanishga undaydi. Ushbu bobda bank sektoridagi eng dolzarb texnologik o'zgarishlar va banklar hamda ularning mijozlari uchun qanday afzalliklarga ega ekanligini ko'rsatib, yoritib berilgan.

Ushbu bobda bank sektorining oligopolistik tuzilmasi amaldagi bank innovatsiyalarini sekinlashtiruvchi tizim ekanligi, bu mijozlarga arzon narxlar va ko'proq tanlovni qo'ldan boy berish va ularning ehtiyojlarini qondira olmaydigan mijozlarga yomon xizmat ko'rsatish bilan shug'ullanish xavfini tug'dirishi ko'rsatib berildi. Butun dunyo bo'ylab tartibga soluvchilar o'z bank bozorida raqobatni kuchaytirish va uni modernizatsiya qilishni tezlashtirish zarurligini asoslab berishdi.

Shuningdek, mazkur bobda, hududlar miqyosida raqamli transformatsiya jarayonida yuzaga keladigan bir qator muammolar ochib berilgan va bunda rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar, yirik sof foydaga ega hamda sof foydasi kichik tijorat banklari orasida raqamli rivojlanishga qilinadigan investitsiyalar imkoniyatidagi nomutanosibliklar hamda raqamli xizmatlarni qabul qiluvchi mijozlarning salohiyatidagi tafovut, hududlardagi ijtimoiy va iqtisodiy tengsizlik kabi masalalar aniq misollarda keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Tijorat banklari xizmatlariga raqamli texnologiyalarni joriy qilish holatining tahlili”** deb nomlangan ikkinchi bobida mamlakatimizdagi tijorat banklarini raqamli transformatsiya sharoitida o'z xizmatlarini raqamlashtirishga qaratilgan siyosati, iqtisodiy-huquqiy mexanizmining xususiyatlari, tijorat banklarida raqamli transformatsiyalashtirish tizimining holati, o'ziga xos xususiyatlari va imkoniyatlari tizimli tadqiq etilgan. Shu bilan birga, Mamlakatimiz tijorat banklarida raqamli xizmatlarni rivojlantirishda hududlardagi raqamli xizmatlarga bo'lgan talab, AKT sohasidagi hududiy nomutanosibliklar baholangan. Bundan tashqari, tadqiqotchi tomonidan mamlakatimiz banklarida raqamli xizmatlarni rivojlantirishda Markaziy bank faoliyati va o'rni baholangan hamda ularning vakolati va vazifalari tahlil etilgan.




2-rasm. O'zbekiston Respublikasida bank hisobvaraqlariga masofadan xizmat ko'rsatish tizimlaridan foydalanuvchilar soni ⁶

⁶ Tadqiqot jarayonida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Ushbu bob doirasida O‘zbekistonda raqamli bank hisobvaraqlariga masofadan xizmat ko‘rsatish tizimlaridan foydalanuvchilar tahlil etilgan va ulardagi kamchiliklar ochib berilgan (2-rasm).

Tadqiqotchi tomonidan tijorat banklari tomonidan taklif etilayotgan raqamli xizmatlar, mobil ilovalardagi imkoniyatlar, ko‘rsatilishi bilan birga hali-hanuz iqtisodiyotda naqd pullarga talabning yuqoriligi, banklar tomonidan raqamli xizmatlar o‘rniga bank filiallarini rivojlantirishi tanqidiy tahlil qilingan. Banklar uchun Internet banking, mobil banking, mobil ilova xizmat turlari xilma xilligini rivojlantirish uchun xulosa va takliflar berilgan.

Shu bilan birga, ushbu bobda banklarning zamonaviy tipdagi transformatsiyalashgan raqamli banklarga o‘tishini asosiy yo‘nalishlari tadqiqot jarayonida ishlab chiqilgan (3-rasm).



3-rasm. Transformatsiyalashgan raqamli banklarga o‘tishini asosiy yo‘nalishlari⁷

Dissertant tomonidan tadqiqot jarayonida bank xizmatlarining an’anaviy va raqamli modellari o‘rtasidagi asosiy farqlar ajratilib raqamli modeli ustunligi ko‘rsatib berilgan (1-jadval).

Mazkur bobda, shuningdek, “Turonbank” ATB darajasida raqamlashtirishni bankning sof foydasiga ulushi hamda raqamlashtirish asosida sof foydaning o‘tgan yillardagi o‘sish ko‘rsatkichlari ko‘p omilli ekonometrik modeli hisoblab chiqilgan.

2-jadval ma’lumotlaridan har bir omil bo‘yicha kuzatuvlar soni, ularning o‘rtacha, maksimal va minimal qiymatlarini ko‘rish mumkin. Bundan tashqari har bir omilning standart chetlanishi qiymatlari keltirib o‘tilgan.

Asosiy farzlardan birinchisi omil belgilar o‘rtasida multikolleniarlik bo‘lmasligi shart. Buni tekshirishning bir necha xil usuli mavjud va ulardan biri bu korrelyatsion tahlil hisoblandi.

Omillar o‘rtasida multikolleniarlik hamda natijaviy omil qatorida geteroskedastlik mavjud emasligini hisobga olgan holda Sof foyda (Y) va unga ta’sir etuvchi omillar ($\ln X_i$) bo‘yicha ko‘p omilli ekonometrik model tuzilgan. Ushbu ko‘p omilli ekonometrik model quyidagi ko‘rinishga ega:

⁷ Tadqiqot jarayonida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

An'anaviy va raqamli bank xizmatlari modellari o'rtasidagi farqlar⁸

Bank xizmatlarining an'anaviy va raqamli modellari o'rtasidagi asosiy farqlar	Bankning an'anaviy modeli	Bankning raqamli modeli
Mijozlar tomonidan bank xizmatidan foydalanish vaqti	Cheklangan (xizmatlar faqatgina hafta ish kunlarida va aniq belgilangan vaqtda)	Cheklanmagan vaqtda (tunu-kun)
Mijozlarga xizmat ko'rsatish tezligi	Xodimlar malakasi hamda tajribasiga bog'liq	Xizmatlar ayni vaqtda darhol olinadi
Xizmatga bo'lgan yondashuv	Moslashuvchan, turli xil xizmatlarni ko'rsatish	Moslashuvchan, yangi xizmat turlarini masofaviyga moslashtirish, mijoz uchun qulay kanal
Xizmat ko'rsatish narxi	Yuqori (bunda xarajatlar hisobga olingan holda xodimlar uchun bank xarajatlari, texnologik hamda ma'muriy va boshq)	Xizmat narxining nisbatan arzonligi (va ba'zi xizmatlar bepul ko'rsatiladi)
Xizmat ko'rsatish doirasi	Asosan filial binolarida xodimlar orqali	Cheksiz ko'rinishda (geografik joylashuvi ahamiyatsiz)
Xizmat ko'rsatish jarayonida operatorning holati	Operatorning vazifalari bank binosida xodim tomonidan amalga oshirilishi	Operatorning vazifalari toliq mijozning o'zi tomonidan amalga oshiriladi
Yangi turdagi xizmatlarni o'rganish uchun jarayonlar va marketing	Ko'p vaqt hamda xarajat talab qiladi	Tezkorlik bilan amalga oshirildi, masalan, (SMS, internet kanallari hamda elektron pochta)

$$y = \beta_0 + \beta_1x_1 + \beta_2x_2 + \dots + \beta_nx_n + \varepsilon, \quad (1)$$

Ko'p omilli ekonometrik model analitik ko'rinishda quyidagicha:

$$Y^* = 0,12X_1 + 0,11X_2 + 0,39X_3 + 0,17X_4 + 9,17 \quad (2)$$

Determinatsiya koeffitsiyenti $R^2=0.971$

Bank xizmatlari murakkabligi bank xizmatlariga ta'sir ko'rsatuvchi to'siqlarning tabiati, raqamli xizmatlarning soni va xilma-xilligiga qarab xizmatlarning ko'rsatilishi davomiyligi, xizmat sifati va raqamli xizmatlarning texnik murakkabligi bilan tasniflanuvchi xususiyatlarning o'zaro kombinatsiyasi bilan belgilanadi. Tadqiqot jarayonida Raqamli xizmatlarning murakkabligi – xizmatlar bo'yicha raqamli xizmatlarni ko'rsatilishi davrida turli xil uzilishlarga ketgan vaqtning umumiy vaqtga nisbati sifatida ta'rif ishlab chiqilgan.

Bank xizmatlarida raqamli xizmatlar ko'rsatishga to'sinlik qiluvchi omillarni uch guruhga bo'lish mumkin:

1) texnologik uzilishlar – (raqamli xizmatlarni iste'molchi tomonidan olish, qayta kiritish, ma'lumotlarni kiritish, identifikatsiyadan o'tish uchun ketgan vaqt);

2) majburiy uzilishlar – (bank dasturiy tizimiga kiritiladigan yangi turdagi o'zgarishlar, markaziy bank tomonidan kiritiladigan tuzatishlar, ilovalarga kiritiladigan o'zgartirishlar, to'lov kartalaridagi uzilishlar);

⁸ Tadqiqot jarayonida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

2-jadval

ATB “Turonbank”ning 2020-2023 yillar davomidagi sof foyda va asosiy raqamli xizmatlar ko‘rsatkichlari⁹ mln so‘mda

№	Yillar	U ₁ (Sof foyda)	X ₁ (Bankomat orqali olingan daromad)	X ₂ (Mobil ilovadan olingan daromad)	X ₃ (Internet banking daromadi)	X ₄ (Onlayn mikroqarzda n olingan daromad)
1	2	3	7	8	9	10
1	2020 I kv	5834642,35	3571,85	50354,82	39790,60	101,80
2	2020 II kv	9263601,65	125303,26	33813,69	48066,11	201,60
3	2020 III kv	11303200,81	321161,30	75561,90	52967,80	211,10
4	2020 IV kv	13665046,46	1068839,19	55605,20	62622,77	260,96
5	2021 I kv	14765200,93	1359746,01	54960,06	76530,70	61268,00
6	2021 II kv	16062665,53	2479132,58	107823,74	124887,33	99621,57
7	2021 III - kv	18994243,92	2598027,84	136249,56	148325,00	164644,00
8	2021 IV - kv	20130008,05	2750229,78	266030,33	169565,18	175256,00
9	2022 I- kv	22776747,56	3022968,96	56799,88	171235,00	188625,00
10	2022 II kv	23426726,95	3508904,51	286103,91	178256,21	189958,00
11	2022 III kv	29015472,76	3596563,15	356072,49	181235,24	197100,00
12	2022 IV kv	32827578,95	6294259,40	381281,03	185326,30	230145,00
13	2023 I kv	33112416,09	6511628,62	432633,43	240385,43	256984,00
14	2023 II kv	36114235,01	7393826,75	496057,37	250488,03	279230,00
15	2023 III kv	37125254,60	7989929,41	553476,43	288366,35	249418,00
16	2023 IV kv	38168550,62	9109166,62	440820,94	386640,92	339693,00

3) tasodifiy uzilishlar – (elektr energiya, internet va bir vaqtda xizmatdan foydalanuvchilar soni ko‘payib ketganligi bilan bog‘liq);

Raqamli bank xizmatlaridan foydalanish murakkabligi indeksi I_m quyidagicha hisoblanishi mumkin:

$$I_m = \frac{t_m}{t_u} \quad (3)$$

bu yerda: t_m – uzilishlarga sarflangan umumiy vaqt, soat;

t_u – bank xizmatlari bo‘yicha bir xizmat uchun sarflanadigan umumiy vaqt, soat.

Raqamli bank xizmatlaridan foydalanish murakkabligi indeksi 0 dan 1 gacha oraliqda qiymatlar qabul qilib, u qanchalik 1 ga yaqinlashsa, murakkablik darajasi shuncha yuqori bo‘ladi.

P_{tex} – raqamli xizmatlardan foydalanish uchun sarflanadigan vaqt uchun ketgan amaldagi vaqtning xizmat uchun belgilangan rejadagi vaqtga nisbati:

$$R_{tex} = \frac{\sum_{i=0}^n \frac{t_{6.a}}{t_{6.p}}}{n} \quad (4)$$

P_M raqamli bank xizmatlarini ko‘rsatishda bank dasturiy tizimiga kiritiladigan

⁹ Banklarning MHXS ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

yangi turdagi o'zgarishlar, markaziy bank tomonidan kiritiladigan tuzatishlar, ilovalarga kiritiladigan o'zgartirishlar, to'lov kartalaridagi uzilishlar uchun amaldagi ketgan vaqtning raqamli xizmatni ko'rsatish uchun ketgan belgilangan rejadagi vaqtga nisbati:

$$P_M = \frac{\sum_{i=0}^j \frac{t_{c.a}}{t_{c.p}}}{j} \quad (5)$$

P_{tas} raqamli bank xizmatlarida elektr energiya bilan bog'liq uzilishlar, internet bilan bog'liq uzilishlar, bir vaqtda xizmatdan foydalanuvchilarning juda ko'payib ketganligi va boshqalar uchun ketgan amaldagi vaqtni xizmat uchun ketgan umumiy vaqtga nisbati:

$$P_{tas} = \frac{\sum_{i=0}^m \frac{t_{\bar{n}}}{t_u}}{m} \quad (6)$$

Mavjud ko'rsatkichlar asosida raqamli xizmatlarning bir xizmat vaqtidagi jami uzilishlar vaqtlarining ulushi quyidagicha bo'ladi (3-jadval).

Hisob natijalaridan ko'rinib turibdiki, bank raqamli xizmatlari orasidan internet banking xizmatining murakkablik darajasi eng yuqori 43 %ni, onlayn valyuta ayirboshlash esa eng quyi daraja 16 %ni tashkil qilmoqda. Raqamli xizmat turlarini rivojlantirayotganda hamda yangi turdagi raqamli xizmatlarni joriy qilayotganda xizmatning murakkablik darajasini inobatga olgan holda yondashish maqsadga muvofiq.

Jadval ma'lumotlaridan ko'rishimiz mumkinki, murakkabligi indeksini qisqartirish bank uchun bir kunda 32 963 952 so'mlik daromad keltiradi (4-jadval).

Bir yilda esa qariyb 9 mlrd so'mlik daromadni oshishiga erishishi mumkin bo'ladi. Albatta buning uchun bank murakkablik indeksiga ta'sir qiluvchi omillarni bartaraf etishi hamda birinchi navbatda yuqori daromad keltiradigan raqamli xizmatlarni uzilish vaqtlarini qisqartirishi kerakligi ilmiy asoslangan.

Shuningdek, mazkur bobda biznes jarayonlari, bank va bankdan tashqari xizmatlarni raqamlashtirish hisobiga bank bozor qiymatini maksimal oshirish imkonini ta'minlovchi bank xizmatlari tizimi arxitekturasida raqamli platforma modeli takomillashtirilgan (4-rasm).

Shuningdek, tijorat banklarini raqamli transformatsiyasi jarayonida turli omillar ta'sirida innovatsion texnologiyalarni joriy etishda bank sektorini raqamli transformatsiya qilish mexanizmi ishlab chiqilgan (5-rasm).

Mazkur bobda shuningdek, Tijorat banklari komission daromad va komission xarajatlari ko'rsatkichlarining sof foydaga ta'siri ko'p omilli ekonometrik modeli hisoblab chiqilgan.

5-jadval ma'lumotlaridan sof foyda hajmi bo'yicha tuzilgan ko'p omilli ekonometrik model bo'yicha natijaviy omil (Y) qoldiqlarida avtokorrelyatsiya mavjudligini Darbin-Uotson (DW) mezonidan foydalanib tekshirilgan.

Raqamli bank xizmatlaridan foydalanish murakkabligi indeksi¹⁰

№	Raqamli xizmat turlari	Xizmat ko'rsatish davomiyli gi (ochiq balans holatida)	Xizmat ko'rsatish davomi yligi (bir so'rov uchun) soniya	Jami uzilishlar vaqti				Jami uzilish, % da			Bank xizmatlari murakkabligi % da
				Tex.	Maj.	Tas.	Jami.	Tex.	Maj.	Tas.	
1	Internet banking	28800	240	7200	2700	2400	12300	59	22	20	0,43
2	P2P o'tkazmalar	28800	180	3000	1200	1500	5700	53	21	26	0,20
3	Onlayn mikroqarz	28800	720	3600	1500	1200	6300	57	24	19	0,22
4	Bankomat xizmati	28800	360	4200	3600	3000	10800	39	33	28	0,38
5	Xizmatlarga masofadan to'lovlar	28800	420	2700	2400	1500	6600	41	36	23	0,23
6	Onlayn valyuta ayirboshlash	28800	300	1800	1200	1500	4500	40	27	33	0,16
7	Omonat xizmati	28800	480	2400	1800	1200	5400	44	33	22	0,19

Ko'p omilli ekonometrik modeldagi noma'lum $\beta_0, \beta_1, \beta_2, \dots, \beta_n$ parametrlarning qiymatlarini aniqlashda "eng kichik kvadratlar usuli" dan foydalanildi.

Ko'p omilli ekonometrik modelni analitik ko'rinishda quyidagicha ifodalandi:

$$Y^* = 3,93X_1 - 5,16X_2 - 136118,4 \quad (7)$$

Determinatsiya koeffitsiyenti,

Ekonometrik modelning sifatini determinatsiya koeffitsiyentidan foydalanib tekshirildi.

Sof foyda (Y) bo'yicha tuzilgan ko'p omilli ekonometrik modelning statistik ahamiyatligini yoki o'rganilayotgan jarayonga adekvatligini tekshirishda Fisherning F-mezonidan foydalanamiz. Fisherning hisoblangan F-mezoni qiymati uning jadvaldagi qiymati bilan taqqoslanadi. Agar $F_{hisob} > F_{jadval}$ bo'lsa, u holda ko'p omilli ekonometrik model statistik ahamiyatli deyiladi.

¹⁰ Tadqiqot jarayonida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Banklar raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish hamda o‘z xizmatlarini raqamli ko‘rinishga transformatsiya qilish ekan albatta bunda komission haqlarni minimallashtirish zarurligini tavsiya qilamiz.

4-jadval

Raqamli bank xizmatlaridan foydalanish murakkabligi indeksini qisqartirish natijadorligi¹¹

